



Dilshod SIDDIQOV,
Namangan davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

DSc, dots.M.Asqarova taqrizi asosida

DIDACTIC PRINCIPLES OF THE DEVELOPMENT OF AESTHETIC CULTURE OF FUTURE EDUCATORS THROUGH LOCAL HISTORY MUSEUMS

Annotation

This article covers the didactic principles of the development of the aesthetic culture of future educators through local history museums on a scientific basis. The study analyzed the content and essence of the concept of aesthetic culture, its role in the pedagogical process and its role in the personal and professional development of future teachers. This article covers the didactic principles of the development of the aesthetic culture of future educators through local history museums on a scientific basis. The study analyzed the content and essence of the concept of aesthetic culture, its role in the pedagogical process and its role in the personal and professional development of future teachers. Through the museum's exhibits, interactive exhibitions and cultural and educational events, opportunities for the formation of aesthetic taste, the development of artistic perception, the strengthening of interest in art and historical heritage are indicated. The article also reveals didactic principles – systematicity and consistency, the proximity of the educational process to viability, an integrative approach, the promotion of creative activity, and the importance of a student-individual centralized approach.

Key words: Local history museums, aesthetic culture, future educators, didactic principles, Museum pedagogy, artistic perception, national values, interactive education, integrative approach.

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ РАЗВИТИЯ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ СРЕДСТВАМИ КРАЕВЕДЧЕСКИХ МУЗЕЕВ

Аннотация

В данной статье научно обоснованы дидактические принципы развития эстетической культуры будущих педагогов средствами краеведческих музеев. В исследовании проанализировано содержание понятия эстетическая культура, ее роль в педагогическом процессе и роль в личностном и профессиональном развитии будущих педагогов. В данной статье научно обоснованы дидактические принципы развития эстетической культуры будущих педагогов средствами краеведческих музеев. В исследовании проанализировано содержание понятия эстетическая культура, ее роль в педагогическом процессе и роль в личностном и профессиональном развитии будущих педагогов. Показаны возможности формирования эстетического вкуса, развития художественного восприятия, повышения интереса к искусству и историческому наследию посредством музейных экспонатов, интерактивных выставок и культурно-просветительских мероприятий. Также в статье раскрыты дидактические принципы – системность и последовательность, близость процесса обучения к жизнеспособности, интегративный подход, стимулирование творческой активности и значение личностно-ориентированного подхода к учащемуся.

Ключевые слова: Краеведческие музеи, эстетическая культура, будущие педагоги, дидактические принципы, музейная педагогика, художественное восприятие, национальные ценности, интерактивное обучение, интегративный подход.

O'LKASHUNOSLIK MUZEYLARI VOSITASIDA BO'LAJAK PEDAGOGLARNING ESTETIK MADANIYAT RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TAMOYILLARI

Annotatsiya

Ushbu ilmiy ishda o'lkashunoslik muzeylari asosida bo'lajak pedagoglarning estetik madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi didaktik tamoyillar ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Tadqiqot davomida estetik madaniyat atamasining mazmun va mohiyati, uning ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'rni hamda kelajakdagi o'qituvchilarning shaxsiy va kasbiy shakllanishidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Muzey ekspozitsiyalari, interaktiv namoyishlar va madaniy-ma'rifiy tadbirlar orqali estetik didni tarbiyalash, badiiy idrokni rivojlantirish hamda san'at va tarixiy merosga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish imkoniyatlari yoritiladi. Maqolada tizimlilik va izchillik, o'quv jarayonining hayotiylikka mosligi, fanlararo integratsiya, ijodiy faollikni qo'llab-quvvatlash va shaxsga yo'naltirilgan yondashuv kabi didaktik tamoyillarning o'quv jarayonidagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: O'lkashunoslik muzeylari, estetik madaniyat, kelajak pedagoglari, didaktik tamoyillar, muzey pedagogikasi, badiiy idrok, milliy qadriyatlar, interaktiv ta'lim, integrativ yondashuv.

Kirish. Hozirgi davrda ta'lim tizimida shaxsning estetik madaniyatini rivojlantirish masalasi nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy-ma'naviy zarurat sifatida e'tirof etilmoqda. Xususan, bo'lajak pedagoglarning estetik didi,

badiiy idroki va madaniy merosga munosabatini shakllantirishda o'lkashunoslik muzeylari muhim o'quv-tarbiya manbai sifatida xizmat qiladi. Muzeylar nafaqat tarixiy va madaniy obidalarini saqlash, balki ularni yosh avlodga estetik ta'sir ko'rsatish vositasi sifatida namoyish etish imkoniyatiga ega. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan uyg'unlashgan muzey pedagogikasi o'quvchilar va talabalar uchun interaktiv, ijodiy va ta'sirchan o'quv muhitini yaratadi. Shu bois, muzey asosidagi estetik tarbiya jarayonida tizimli yondashuv, fanlararo integratsiya va shaxsga yo'naltirilgan metodlardan foydalanish bo'lajak pedagoglarning nafaqat kasbiy mahoratini, balki umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligini ham ta'minlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Pedagogik ta'limda estetik madaniyatni shakllantirish masalasi ko'plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar e'tiborida bo'lib kelgan. Xususan, J. Dewey, H. Gardner, L.S. Vygotskiy kabi olimlar estetik tarbiyaning shaxs rivojidagi o'rini nazariy jihatdan asoslab bergan. Ularning tadqiqotlarida estetik idrok va badiiy tafakkumi rivojlantirish jarayonida amaliy va hissiy tajribaning uzviy bog'liqligi alohida ta'kidlangan.

O'zbekistonlik olimlardan M. Jumayev, D. Jo'rayev, N. Ismoilova tadqiqotlarida o'lkashunoslik muzeylarining ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati, tarixiy-madaniy meros orqali estetik didni shakllantirishning metodik asoslari yoritilgan. Ularning ishlarida muzey pedagogikasi interaktiv metodlar bilan uyg'unlashtirilganda talabalar estetik idrokining chuqurlashishi kuzatilishi ilmiy dalillar bilan tasdiqlangan.

Xorijiy manbalarda (Falk & Dierking, 2013; Hein, 1998) muzeylarni "ochiq sinf" sifatida ko'rib chiqish konsepsiyasi ilgari surilib, o'quvchilar va talabalar tajribaviy, vizual va hissiy bilim manbalari orqali o'zlashtirish samaradorligini oshirish yo'llari bayon etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda ko'rib chiqilayotgan tizimli yondashuvning bosh g'oyasi — bo'lajak pedagoglarning o'lkashunoslik muzeylari yordamida estetik madaniyatini rivojlantirish jarayonini ham yaxlit tizim, ham uning tarkibiy qismlar majmui sifatida tahlil qilishni talab etuvchi yaxlitlik tamoyilidir. Mazkur model o'zaro bog'langan bloklar va elementlardan iborat murakkab tizim ko'rinishida talqin etilishi mumkin. Bu tamoyil nafaqat ta'lim oluvchining ayrim xatti-harakatlarga munosabatini aniqlashga, balki uni keng dunyoning ajralmas bo'lagi sifatida voqelikni to'liq idrok etishga yo'naltirish imkonini ham beradi.

Muzeylarda o'tkaziladigan turli xil o'quv kurslari, amaliy mashg'ulotlar va seminarlar bu vazifani faqatgina qisman amalga oshira oladi. Biroq, so'nggi yillarda muzeylar tashrif buyuruvchilar bilan ishlashda yangi yondashuvlarni izlab, ta'lim muassasalari hamda pedagogika oliygohlari bilan tizimli hamkorlikni yo'lga qo'yish imkonini beruvchi ta'lim xizmatlarini qayta tashkil eta boshlagach, vaziyatda ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, muzey pedagogikasi asosida turizmga yo'naltirilgan eng samarali yondashuv — bu aniq muzeyning o'ziga xos jihatlari va zamonaviy pedagogik metodlarni uyg'unlashtirgan muzey-pedagogik dasturlarni ishlab chiqishdir.

Mamlakatimizdagi bo'lajak pedagoglarni tayyorlash yo'nalishlarining davlat ta'lim standartlari tahlili shuni ko'rsatadiki, o'quv jarayoniga quyidagi muhim yo'nalishlar yetarlicha kiritilmagan:

- muzey va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni va shakllari;
- ko'rgazmali tafakkur mohiyatini va shaxs shakllanishidagi ahamiyatini fanlararo integratsiya asosida, muzey-pedagogik usullar bilan tushuntirish;
- muzey pedagogikasi yo'nalishida ilmiy-tadqiqot olib borish;
- zamonaviy muzey sharoitida art-terapiya (san'at orqali davolash) imkoniyatlari.

Shu bois, oliy ta'lim muassasalarida bakalavriat va magistratura darajasida bo'lajak o'qituvchilarni muzey-pedagogik faoliyatga tayyorlash hamda qayta tayyorlash imkoniyatlarini yaratish zarur. Bundan tashqari, mazkur yo'nalishdagi ta'limni pedagogika kollejarida yoki madaniyat va san'at oliygohlarida tashkil etish ham maqsadga muvofiqdir [3].

Shu sababli oliy ta'lim muassasalari pedagogik jarayonida ta'lim mazmuni quyidagi asosiy yo'nalishlarga qaratilishi lozim:

Erkin shaxsni shakllantirish — yuqori darajadagi ongli fikrlash; fuqarolik va shaxsiy qadr-qimmatni anglash; o'ziga hurmat va talabchanlik; halollik, rostgo'ylik, hayotning ma'naviy qadriyatlariga yo'naltirish; qaror qabul qilishda mustaqillik va faol pozitsiya egallash, mas'uliyatlilik.

Ijodkor shaxsni rivojlantirish — qobiliyatlar, bilim, ko'nikma va malakalarni oshirish; sezgi organlari, aqliy salohiyat va intuitsiyani takomillashtirish.

Insonparvarlik fazilatlarini tarbiyalash — sezzirlik, rahm-shafqat, mehr-oqibat, fidoyilik, bag'rikenglik, kamtarlik, hayotning haqiqiy qadriyatlarini anglash hamda dunyo, tabiat va boshqa insonlarni tushunish qobiliyatini rivojlantirish.

Ma'naviy barkamollikka erishish — doimiy ravishda dunyoni va o'z ichki olamini bilishga intilish; go'zallikni his qilish, muloqot va mulohaza yuritish madaniyati; hayot ma'nosini izlash, shaxsiy ruhiy dunyoning yaxlitligi va mustaqilligini ta'minlash.

Muzey pedagogikasi orqali turistik faoliyatga yo'naltirish jarayoni bo'lajak o'qituvchilarda qator umuminsoniy, ijtimoiy, shaxsiy hamda umum madaniy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bular quyidagilardan iborat:

Gnostik kompetensiya — keng qamrovli bilimga ega bo'lish, o'z fikrini tanqidiy tahlil qilish va moslashuvchan fikrlash qobiliyatini rivojlantirish. Bunga zukkolik, ehtiyotkorlik, analitik fikrlash, mantiqiylik, axborotni izlab topish va saralash, asosiy g'oyani ajratib ko'rsatish, faktlarni solishtirish, vaziyatlarni izchil tahlil qilish, fikrni aniq va tushunarli ifodalash kiradi. Shuningdek, murakkab o'quv vazifalarini tahlil qilib, ularni hal etishda o'ziga xos yondashuvlarni ishlab chiqish va o'z-o'zini tanqidiy baholash qobiliyati ham muhim ahamiyatga ega.

Axloqiy-irodaviy kompetensiya — axloqiy va huquqiy meyorlarga amal qilish, fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, qonunlarga hurmat bilan qarash, bag'rikenglik, ijtimoiy moslashuvchanlik va madaniy qadriyatlarni qadrlash. Shaxsning maqsad sari intilishi, optimizmi, o'z kuchiga ishonchi, topqirligi, xohish-istaklarini tahlil qilish, ustuvor yo'nalishlarni tanlash, o'z imkoniyatlarini real baholash va faoliyatini mustaqil rejalashtirish ham ushbu guruhga kiradi. Bundan tashqari, qat'iyatlilik, tashabbuskorlik, qiyin vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish, tanqidiy yondashuv, o'z fikrini ochiq bayon etish, vaqtdan samarali foydalanish hamda to'plangan tajribani qayta tahlil qilish ko'nikmalari rivojlanadi.

Kommunikativ kompetensiya – ijtimoiy muloqot madaniyatiga ega bo'lish, hamkorlikda ishlash, shaxslararo munosabatlarni yo'lga qo'yish, hamdardlik va hurmatni namoyish etish. Muloqot jarayonida moslashuvchanlik, ishonitirish qobiliyati, nutqning ifodali va aniq bo'lishi, intonatsiyadan to'g'ri foydalanish, boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish va ularga javob qaytarish, axloqiy qadriyatlarga rioya qilish kabi jihatlar rivojlantiriladi. Mustaqil va jamoada ishlash, yetakchilik qilish yoki boshqalarga bo'ysuna olish qobiliyati ham bu kompetensiyaga kiradi.

Tashkiliy kompetensiya – sog'lom turmush tarzini tushunish va unga amal qilish, jismoniy faollikka ehtiyoj sezish, qat'iyatlilik, uyushqoqlik, mas'uliyat, intizom, tashabbuskorlik, o'z-o'ziga ishonch kabi sifatlarni rivojlantirish. Shuningdek, vaqtni to'g'ri taqsimlash, boshqalarning faoliyatini samarali rejalashtirish va tashkil qilish qobiliyati ham shakllanadi.

Shunday qilib, bir qator kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan muzey pedagogikasi va muzey turizmi talabalar bilan ishlashning pedagogik jihatdan ko'p qirrali shakli sifatida qaralishi lozim. Undan yanada samarali foydalanishning muvaffaqiyati bo'lajak o'qituvchilarning ilmiy va kasbiy professionalligi bilan bog'liq.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). O'lkashunoslik muzeylari vositasida bo'lajak pedagoglarning estetik madaniyatini rivojlantirish bo'yicha olib borilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur jarayon ta'limning mazmuni va shakllarini boyitish,

shuningdek, talabalar shaxsiy-estetik tajribasini kengaytirishga xizmat qiladi. Mahalliy va xorijiy manbalarda ta'kidlanganidek, muzey muhitida o'quv faoliyati nafaqat bilimlarni oshirish, balki hissiy-estetik idrokni chuqurlashtirish va milliy-madaniy qadriyatlarga hurmatni mustahkamlashga imkon yaratadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, samarali natijaga erishish uchun didaktik tamoyillar asosida quyidagi yondashuvlar muhim ahamiyatga ega:

tizimlilik va izchillik - muzey pedagogikasini o'quv jarayoni bilan muntazam integratsiya qilish;

faoliyatga yo'naltirilganlik — talabalarni faol tadqiqot va ijodiy izlanishga jalb etish;

-interaktivlik - multimedia vositalari, virtual ekskursiyalar va amaliy mashg'ulotlarni uyg'unlashtirish;

- milliy-madaniy qadriyatlarga tayanish — estetik tarbiyada tarixiy meros elementlarini faol qo'llash.

Xulosa va takliflar. Zamonaviy bosqichda muzeylar faqatgina muayyan obyekt, hodisa yoki jarayon haqidagi axborotni yetkazish bilan cheklanmay, balki shaxsning ichki olamiga murojaat qilib, uning hissiy kechinmalariga ta'sir ko'rsatishga yo'naltirilmoqda. Shu bilan birga, muzeylar ta'lim tizimining muhim bo'g'ini sifatida qo'shimcha ta'lim vazifalarini ham bajaradi. Bugungi kunda ularning faoliyatida keng tarqalgan interfaol ta'lim-tarbiya shakllari o'quvchi shaxsining har tomonlama rivojlanishi, bilim olishdagi mustaqilligi, o'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Sh.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. O'zbekiston. Toshkent. 2022. – B. 212
2. Muxamedova M.S. Muzeysunoslik sohasini rivojlantirishda Milliy va Xalqaro tashkilotlar faoliyatining o'rni (XX-XXI asrlar) Monografiya. – T.: “Yosh kuch press matbuoti”, 2017. – B. 297
3. Usmanova R.va b. O'lkashunoslik. O'quv qo'llanma.- Qarshi: “Fan va ta'lim” nashriyoti, 2023. – B. 268.
4. Лебедева Л.Д. Педагогические основы арт-терапии в образовании. – СПб.: 2001
5. Щербина А.В. Музейное проектирование : учебно-методическое пособие. – Тольятти.: ТГУ, 2011. 68 с.
6. Культурное наследие и музей в XXI веке : учеб. пособие / ред. Мастеница Е. – СПб: СПбГУК, 2018. – 248 с.: ил